



SAIDA ZUNUNOVA IJODIDA OILAVIY MUNOSABATLAR

Sayfiddinova Ruxshona

Sh.Rashidov nomidagi SamDU filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Saida Zunnunovaning nasriy ijodi, ayniqsa, oilaviy munosabatlar aks etgan hikoyalari tahlil qilinadi. Asarlarda tasvirlangan oilaviy qadriyatlar, ayol obrazi, fidoyilik, mehr-muhabbat, e'tiborsizlik oqibatlar va insoniy kechinmalar tahlil etiladi. Shuningdek, hikoyalarda ifodalangan axloqiy-ruhiy g'oyalar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotgani asoslanadi. Saida Zunnunova nasr va nazmda birdek ijod eta olgan adibadir. Ijodkorning asarlarida oilaviy munosabatlar birinchi planga chiqariladi. Mazkur maqolada mana shu oilaviy munosabatlarga urg'u berilib, ijodkorning bu boradagi qarashlari tadqiq etiladi. Ayniqsa, oiladagi o'zaro va zidlik munosabatlar uzviyligi borasida fikr-mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Saida Zunnunova, hikoya, yolg'izlik, kechikish, oila, hayot, adabiyot, qo'llar, qahramon, ayol obrazi, mehr, fidoyilik, lirik qahramon, she'riyat.*

Kirish.

O'zbek adabiyotida ayol ijodkorlar orasida o'ziga xos uslub va ruhiy teranlik bilan ajralib turadigan adibalardan biri Saida Zunnunovadir. U she'riyatda shaxsiy kechinmalar, vatanparvarlik, sadoqat kabi mavzularni yoritgan bo'lsa, nasriy asarlarida insoniy munosabatlar, xususan, oilaviy munosabatlarni keng yoritgan. Uning hikoyalari tarbiyaviy, axloqiy va estetik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, sadoqat va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshiralayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani ham adabiyotda bir yangilik sanaladi. Chunki adabiyot insonni ezgulikka eltuvchi yo'l desak mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyotda ham xarakter xususiyati mavjud, biz buni o'z qalbimizda uyg'ota olsak ijodkorlarimiz singari ko'pgina hikoya, roman va hokazolar bunyod etishimiz mumkin. Bu ijodkorlar safidan Saida Zunnunova ham o'rin olgan. Bu ijodkor nazm va nasrda ham uddaburonlik bilan ijod qilgandir. Yozuvchining hikoyalariga e'tibor beradigan bo'lsak, u ko'proq oila



mavzusiga urg'u berganligiga guhov bo'lish mumkin. Birgina adibaning hikoyalarida emas, boshqa yozuvchilarning ham asosiy mavzusi bo'lib kelgan desak adashmagan bo'lamiz. Biz asarlarni o'qish mobaynida har bir asar qahramoniga o'z dunyoqarashimizdan kelib chiqqan holda o'z fikrlarimizni bildiramiz. Yozuvchilarning deyarli ko'p qismi, o'z hayotida aks etgan, bo'lib o'tgan voqealarni hikoya, yoki bo'lmasa roman - shu kabi janrlar orqali asarlarini bir qolipga keltirib namoyon etadi. Masalan, Saida Zunnunovaning "Qo'llar" nomli hikoyasida Malika xola obraziga e'tibor beradigan bo'lsak, bunda bir yolg'iz ayolning bolasiga ham ota, ham ona bo'lib kelganligi, bir tomondan yondashibroq qarasak, matonat, kuchli sabr, asosiysi, halollik aks etadi. Hikoyada urush yillaridagi qiyinchiliklar qisman ta'kidlab o'tib ketilgan. Malika xolaning ham turmush o'rtog'i urush qurbonidir. U turmush o'rtog'iga sadoqatli, vafodor ekanligini hikoya orqali anglay boshlaymiz. Saida Zunnunova nafaqat oila mavzusiga, balki shu mavzu orqali mehr-muhabbat, insoniy fazilatlar kabi fikrlarni namoyon etadi. Malika xola obrazi orqali adiba o'zbek ayolining sabr-toqati, mehribonligi va oila uchun fidokorona xizmatini ko'rsatadi. A.Rahmonova ta'kidlaganidek, "oilalar – jamiyatning birinchi ijtimoiy institutidir va adabiyotda bu institutning aks ettirilishi milliy o'zlikni anglashda muhim omildir"[1]. Malika xolaning keliniga uzugini topshirib, "hurmat uchun taqing" degan so'zlari — o'zbek oilasidagi qadriyatlar, vorislik va avlodlar orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. "Yolg'izlik" hikoyasiga ham nazar soladigan bo'lsak, bunda ham juda ko'p tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlarni ilgari suradi. Birgina "doktorlik", "dissertatsiya" singari unvonlarni deb, bir oilada darz ketadi. Bir yolg'iz ayolning taqdir-qismati Iqbolxon obrazi orqali yoritib beriladi. Bu hikoyada ayolning oilasi farzandi, yaqinlarisiz tugal bo'lmasligi yaqqol ko'rsatiladi. Birgina o'sha unvon sababli bolasiga ham e'tiborsizlik qiladi. Natijada oilasidan ayriladi. U safarga ketganda ham farzandi To'liqning: "Bolangizning o'yinchog'ini yig'ishtirmasangiz, eringizning ivirsig'ni tozalamasangiz", - degan bir jumla so'zlari hamon yodidan chiqmaydi. U tushunib yetganida kech bo'lgan edi. Bu hikoyadan xulosa qilishimiz mumkinki, "obro'-e'tibor qozonib, barcha orzularini oshiraman deb yaqinlaringdan, oilangdan voz kechsang misqollab tergan obro'ying hech narsa emas", - degan fikrlarni keltirishimiz mumkin. Hikoya zamonaviy ayolning ijtimoiy o'rni, shaxsiy ambitsiyalar va oilaviy burchlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni ochib beradi. Taniqli adabiyotshunos Z.Mamajonovanning fikricha, "Zunnunova ijodida ayol obrazi faqat mehr-muhabbat timsoli emas, balki ruhiy murakkablik va jamiyat bilan ziddiyatda yashovchi timsoldir"[2]. Saida Zunnunovaning "Kechikish" hikoyasida ota-ona



o'tkinchi insonlar ekanligi tasvirlangan. Ularni vaqtida qadriga yetish kerak ekanligi, vaqti kelsa ularsiz qolib boshimiz devorga urilgandan so'ng his qilmasligimiz kerak ekanligini shu hikoya orqali ochib bergan. Xurshidbek onasini vafot etishini hayoliga ham keltirmagan edi. Otasi bo'lsa Xurshidbek yosh chog'lari o'tib ketgan edi. Uning qabri ancha yillar o'tib topiladi. Onasi o'sha yerga borishni xohlardi, bu uning ma'yus tortgan ko'zlaridan bilinardi. Xurshid buni sezadi, ammo xotini bilan Issiqko'lga ketayotgan edi. Shunday qilib onasi ham dunyodan o'tib qoladi. Xurshid juda ko'p afsus, nadomatlar qiladi ammo endi juda kech edi. Psixolog olimi D. Qodirova bu borada shunday deydi: "Adabiyotda oilaviy munosabatlar psixologik kontekstda yoritilishi kishilarni hayotiy voqealarni anglashga, o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi"[3]. Aytishadiki, "So'ngi pushaymon, o'zingga dushman". Ijodkorni hikoyalari har tomondan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Saida Zunnunovaning nasriy ijodi — o'zbek ayolining ruhiy dunyosi, oilaviy munosabatlar, insoniy qadriyatlar haqida badiiy-falsafiy mulohazalarga boy. Uning hikoyalarida faqat oila muammolari emas, balki inson qalbidagi ziddiyatlar, afsuslar, kechikkan tuyg'ular ham yuksak badiiylilikda aks ettirilgan. Saida Zunnunovaning asarlarida oilaviy munosabatlarning tasvirlanishi va ular orasidagi murakkabliklar yaxshi aks ettirilgan. Uning yozgan asaridagi oilaviy vaziyatlar, asosan, ayollarning o'z o'rnini topishga bo'lgan kurashlari va jamiyatdagi stereotiplarga qarshi turishlari haqida. Zunnunova ayollarga nisbatan adolat, haq-huquqlar va erkinlik kabi tushunchalarni ta'kidlaydi. Asarlarida oilaviy muammolarni o'rganishda kuchli emotsional yondashuv mavjud bo'lib, bu o'zgarishlarni va oilaviy ahvolni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Agarda adibaning she'rilaiga nazar soladigan bo'lsak, Uning she'rlarida ayolga xos iftixor, mehr, sadoqat va ayni paytda ichki iztirob, jamiyatdagi mavqega doir tafakkurlar chuqur aks etadi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar – er-xotin o'rtasidagi muhabbat va tushunmovchilik, ona va farzand o'rtasidagi bog'liqlik kabi mavzular Zunnunova she'riyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Zunnunovaning lirik she'riyatida ayol obrazlari ko'pincha oila timsoli bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. U oilaviy muhitni faqat tashqi sadoqat, tinchlik emas, balki ruhiy uyg'unlik, ayol qalbining orzu-umidlari bilan baholaydi:

“Ko'nglimda bir iztirobli chiroq,
Men ayolman — yuragimda o't yoq.”



Bu misralarda ayolning oddiy bir turmush kechiruvchigina emas, balki ichki dunyosi bilan yashovchi, his-tuyg'ulari boy shaxs ekani namoyon bo'ladi. Shoiralar oilada ayolning faqat ona yoki turmush o'rtog'i sifatidagi vazifasini emas, balki uning insoniy orzu va istaklarini ham ilgari suradi.

Olim X. Karimovning ta'kidlashicha:

“Saida Zunnunova lirikasi orqali ayol obrazini jamiyatda mustahkam o‘rin egallagan, ruhiyati chuqur, tafakkuri keng shaxs sifatida kashf etish mumkin.”
(Karimov X., O‘zbek adabiyotida ayol qiyofasi, T.: 2022)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
 2. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2001.
 3. Rahmonova A. O‘zbek nasrida oilaviy qadriyatlar. – Toshkent: Fan, 2019.
 4. Mamajonova Z. O‘zbek ayol obrazlari poetikasi. – Samarqand: SamDU, 2020.
 5. Qodirova D. Adabiyot va psixologiya: o‘zaro aloqadorlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
 6. Karimov X., O‘zbek adabiyotida ayol qiyofasi, T.: 2022
-